

XOTIRA ABADIY, QADR MUQADDAS

Abduvohidova Ruxshona Doniyorbek qizi

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

E-mail: ruxshona01062005@gmail.com

Tel: +998931021725

Annotatsiya: Ushbu maqolada suronli Ikkinchi jahon urushida fashizm ustudan qozonilgan g'alabani qo'lga kiritilishida o'zining barcha kuch va g'ayratini safarbar etib, jonini xavf ustiga qo'rqmay qo'ya olgan, fashistlarni zir titratgan partizan, farg'onalik mard jangchi Mamadali Topiboldiyevning hayoti, urushdagi va urushdan keyingi faoliyati haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: Ikkinchi jahon urushi, Mamadali Topivoldiyev, Anna Rilkovalar, Ivan Rilkovalar, Adolf Gitler, "Kazbek", Belorussiya, Rishton, Pandigon, "Uzprodtrans", partizan, pulemyot, otryad, eshelon, kolhoz.

Аннотация: В статье рассказывается о жизни, войне и послевоенной деятельности Мамадали Топиболдиева, отважного партизана из Ферганы, который отдал все свои силы и энергию на победу над фашизмом во Второй мировой войне, бесстрашно рискуя жизнью и заставляя фашистов дрожать от страха.

Ключевые слова: Вторая мировая война, Мамадали Топиболдиев, Анна Рылкова, Иван Рылков, Адольф Гитлер, «Казбек», Беларусь, Риштан, Пандигон, «Узпродтранс», партизан, пулемет, отряд, эшелон, колхоз.

Article: This article provides information about the life, war and post-war activities of Mamadali Topiboldiyev, a brave partisan from Fergana, who mobilized all his strength and energy to achieve victory over fascism in the Second World War, fearlessly risking his life and making the fascists tremble.

Keywords: World War II, Mamadali Topiboldiyev, Anna Rilkovalar, Ivan Rilkovalar, Adolf Hitler, "Kazbek", Belarus, Rishton, Pandigon, "Uzprodtrans", partisan, machine gun, detachment, echelon, collective farm.

Bu tarix – bizniki, uni unutishga hech kimning haqqi yo'q!

Islom Karimov

Ikkinchi jahon urushi dunyo tarixida misli ko'rilmagan darajada katta va dahshatli, butun insoniyat boshiga og'ir kulfatlarni solgan urush bo'ldi. O'zbekiston xalqi butun taraqqiyparvar insoniyat qatori 1941 – 1945-yillarda Ikkinchi jahon urushida faol ishtirok etib, fashizm ustidan qozonilgan buyuk G'alabani ta'minlashga munosib hissa qo'shdi. El-yurtimizni urush yillarida ko'rsatgan mardlik va

qahramonligi biz uchun ulkan jasorat maktabi, g'urur-iftixor manbai bo'lib, vaqt o'tgani sayin bu o'lmas qadriyatlarning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Urushning barcha jabhalarida o'zbekistonlik jangchilar qahramonlik va mardlik namunalarini ko'rsatdilar. Jami bo'lib, Ikkinchi jahon urushiga O'zbekistondan 1 million 433.230 kishi safarbar qilingan. Bu o'sha davrdagi O'zbekistondagi urushga yaroqli aholining 50-60 % ini tashkil etardi [1. – B. 356.]. O'zbekning mard va jasur o'g'lonlari turli xil millat vakillari bilan Ulug' Vatan himoyasi uchun Sobiq Ittifoqning dushman qadami yetgan turli o'lkalarida bo'lib o'tgan janglarda jonbozlik ko'rsatib qahramonlik namunalarini ko'rsatdilar.

1944 – 1945-yillarda Belorussiya, Ukraina, Moldaviya, Boltiq bo'yi respublikalari va Rossiyaning g'arbiy viloyatlaridagi partizanlik otryadlarida faoliyat ko'rsatgan o'zbekistonlik jangchilar faoliyati Ikkinchi jahon urushi tarixi sahifalariga bitilgan bo'lib, ularning nomlariyoq dushman ko'ngliga qo'rquv solgan edi. Bular orasida Mamadali Topiboldiyev, J.Otaboyev, I.Musayev, A.Hakimov, I.Qosimov va boshqalarning mardlik namunalarini ta'kidlash mumkin [2. – B. 364.]. Bu yovqur vatandoshlarimiz orasida Mamadali Topivoldiyevning o'ziga xos o'rni bor.

Mamadali Topivoldiyev 1919-yil 20-sentabrda Farg'ona viloyati Qo'qon uyezdi Rishton volosti Pandigon qishlog'ida dehqon oilasida tavallud topgan. Millati o'zbek. Otasi Topbo'ldi dehqonchilik bilan shug'ullangan, onasi Melibuvi uy bekasi bo'lgan. Oilada 4 nafar farzand bo'lishgan, to'ng'ich farzand Mamadali, undan keyin esa Yigitali, Mahmudjon, Oyimchaxonlar bo'lishgan. Maktabda boshlang'ich ta'limni tugatgandan so'ng, 1934-yildan Rishton tumani aloqa bo'limida pochta xil qilgan. Oq yer qishlog'idagi 1-mashina-traktor stansiyasi qoshidagi traktor xil kursida o'qib, kolxozda traktorchi bo'lib ishlagan. Yana bo'sh paytlari rus, tatar, tojik millatiga mansub rishtonlik do'stlari bilan birgalikda Bog'dod tumanidagi Serovo (hozirda Furqat) temiryo'l stansiyasi ishchisi bo'lib ham ishlagan. 1939-yilda harbiy xizmatga safarbar etilgan. Dastlab Lomja shahri (ba'zi manbalarda esa Bobruysk shahri) yonida joylashgan 130-artilleriya polkida mexanik haydovchi vazifasida xizmat qilgan. 1940-yilda Belostok shahridan polkiga qaytayotganida juda muhim topshiriqni bajarayotgan nemis josusini tiriklayin ushlagan.

Mamadali Topivoldiyev 1941-yildan Ikkinchi jahon urushi janglarida ishtirok eta boshlaydi. G'arbiy front tarkibida Belorussiyadagi mudofaa janglarida ishtirok etgan. Urush paytida Topivoldiyevning harbiy qismi Minsk viloyati Borisov shahri yaqinida nemislar qurshovida qolib ketadi. Qurshovdan faqat o'zi va safdoshi Ivan Rilkov omon qolishib, oyog'idan og'ir yaralangan holda Mogilyov viloyatidagi Ivanning Pisarevo qishlog'iga jo'nab ketishadi. Ivanning onasi Anna Vasilyevna Rilkova Mamadaliga o'z uyidan boshpana bergan. Ammo qishloqdagi ayrim shaxslar Topivoldiyevning yashiringan joyi haqida nemislarga xabar berishadi. Nemis askarlari Anna Rilkova uyini tintuv qilishib, uni qamchilab jazolaydi va uyini yoqib yuborishadi. Yerto'ladagi kartoshka uyumiga ko'milib olgan Topivoldiyev yong'inda

tasodifan tirik qolib, Ratsev o'rmonidagi partizanlar otryadiga qo'shiladi. Bu otryadga Topivoldiyevdan tashqari quoldoshlari Ivan Rilko va desantchi Nikolay Paxota ham qo'shilgan. Otryadga sobiq rota siyosiy rahbari mordvalik Aleksandr Fyodorovich Simdyankin rahbarlik qiladi [4].

1941-yil noyabrda Topivoldiyev va Paxota nemislar tomonidan egallangan Borisov shahridagi qamoq lageridan 146 nafar harbiy asirni ozod qilishadi. 1942-yil fevralda Krugloye shahrida razvetka chog'ida Mamadali Hilfspolizei (ko'makchi politsiya) tomonidan asirlikka olinadi, ammo ertasi kuni Topivoldiyev qo'riqchini o'ldirib, qochib ketadi. So'ngra 13 nafar askardan iborat partizanlik guruhini tuzib, Pisarevo, Dudakovich, Oglobli qishloqlarida o'z faoliyatini olib borishadi. Tez orada guruh chegara ofitseri Gerasim Alekseyevich Kirpich rahbarlik qilayotgan partizan otryadlari uyushmasiga qo'shiladi.

Boshqa ma'lumotlarga ko'ra, Pisarevo qishloq aholisi xirmonni erta yig'ib olib, uni nemislardan yashirib qo'ygan. O'z navbatida, Topivoldiyev qishloqdagi yagona traktorni tuzatib, xirmonni yig'ishtirishda yordam beradi. Bundan xabar topgan Hilfspolizei Topivoldiyevni asirga olishib, Krugloyedagi qamoq lageriga jo'natishadi. Topivoldiyev yana lagerdan qochib, Kirpich otryadiga qo'shiladi.

1941-yil may oyi oxirlarida otryad kengayganligi sababli "Chekist" partizanlik brigadasi sifatida qayta tashkil etiladi. Brigada askarlari turli millat vakillari bo'lishgan, jumladan, Topivoldiyev, kognonlik G'apport Sultonov, Anatoliy Xaynatskiy, Ivan Kulikov – belorus, Nikolay Fyodorov, Pavel Golitsin – rus, Nikolay Apanasenko, Vasiliy Yurchenko – ukrain, Aleksandr Simdyankin, Nikolay Koyanov – mordvalik, Aleksandr Dego – ussuriysklik, Musul Majitov, Qosim Aisogaliyev – qozoq, Sultan Murmaxet – tatar, Ivan Ambrosimov – udmurt, Danil Aidarov, Stepan Yakimov – osetin, Ivan Xristolyubov – mariy, Ivan Danilov – chuvash, Ildexan Umaxanov – qo'miq, Multon Elkonovich – yahudiy millatidan bo'lishgan [4].

1942-yil iyul oyida ular safiga Kruglyansk, Biyalinichiy, Tolochinsk, Orsha, Lepelsk, Shklovsk tumanlaridagi partizanlik otryadlari ham brigadaga kelib qo'shiladi. 5-otryad razvedka bo'linmasi komandiri sifatida ilk harbiy harakati Smolenskdan Minskga ketayotgan dushman poyezdiga qilgan hujumi bo'lgan. Trotsilovo – Slavnaya stansiyasi oralig'ida poyezd to'liq yo'q qilinadi. O'sha yilning oktyabrda Topivoldiyev aholidan chorvasini tortib olib, Podberezino qishlog'iga to'plagan nemis askarlarini yo'q qilish rejasini o'ylab topadi hamda qo'riqchi nemis askarini yo'q qilib, podani otryad shtabiga olib keladi.

1942-yil kuzida brigada tarkibi yanada kengayadi, ammo brigada Oliy bosh qo'mondonlik bilan hali ham o'zaro aloqa o'rnatmagandi. Qo'mondonlikka to'plangan ma'lumotlarni yetkazish Topivoldiyevga yuklatiladi. Topivoldiyev brigada tomonidan qo'lga kiritilgan fashistlarning 7 ta muhim ma'lumotini Moskvaga, ya'ni Oliy bosh qo'mondonlikka yetkazadi. Moskvada qo'poruvchilik maktabida tahsil olib, 1943-yil bahorida brigadasiga qaytib keladi.

1943-yil 28-mayda Topivoldiyev Nikolay Apanasenko bilan birga Shkolovsk tumanigi Klimovich qishlog'ida 20 nafar nemis askarlarini asir oladi. 1943-yil 13—15-iyun kunlari yakka o'zi Voronsevichi qishlog'ida nemislarning yengil va yuk avtomobillarini portlatib yuboradi. 1943-yil 26-avgustda Logovshino qishlog'ida joylashib olgan fashist otryadini bir o'zi pulemyoti bilan yo'q qiladi. Shu yilning yoz fasli oxirida safdoshi Nikolay Kayonov bilan ayollar kiyimini kiyib olgan holda Lyubanchi qishlog'iga kirib olishib, u yerda joylashgan 15 nafar nemis askarini qirib tashlaydilar. Voronsevichi qishlog'idagi jangda esa 8 nafar nemisni yo'q qilishib, 3 nafar partizanni qutqarishadi. Ushbu jasorati uchun Topivoldiyev "Qizil Yulduz" ordeniga tavsiya qilinadi. 1943-yil sentyabrda Tolochin qishlog'iga kelib o'rtnashgan "Turkiston legioni" a'zolari bilan muzokaralar o'tkazish orqali ularni taslim bo'lishga ko'ndiradi. Legiondan 27 (ba'zi manbalarda 17) kishi partizanlik harakatiga qo'shiladi. 7-oktyabrda bo'linmasi bilan Orexovka qishlog'idagi fashistlarning fransuz garnizonini yo'q qilgan. 1943-yil dekabr boshida Topivoldiyev bo'linmasi bilan Tolochinsk tumani markazida joylashgan fashistlar garnizoniga hujum qilib, yuzlab asir tushgan sovet askarlarini ozod qilishadi. Askarlar orasida O'rta Osiyo vakillari ham bo'lishgan. Ular orasida keyinchalik tojikistonlik Karim Dadaboyev, qoraqalpog'istonlik Abdulla Bektemirov, Beshariq tumanidan Berdiquil Rahimov, Asakadan Qurbon Haydarov, Rahmatjon Yo'ldoshevlar partizanlik harakatiga qo'shiladilar.

Mamadali Topivoldiyev Oliy bosh qo'mondonlikka yana bir muhim ma'lumotni yetkazgan. Ma'lumotda Belorussiyani ozod qilishda aholini xavfsizligini ta'minlash, muhim obyektlarning joylashuvi, dushmanga qarshi qaysi yo'nalishlarda zarba berishga oid ko'rsatmalar, partizanlar shtabida tayyorlangan maxfiy xaritalar bo'lgan. Natijada, 1944-yil yozida Oliy bosh qo'mondonlik qaroriga asosan Belorussiyani to'liq ozod qilish boshlanadi va 1944-yil 3-iyul kuni Belorussiya to'laligicha ozod qilinadi. Shundan keyin Mamadali Topivoldiyev 1944-yil 5-iyul kuni qo'mondonlik topshirig'iga ko'ra, Orsha shahri harbiy komendaturasida maxsus lavozimda faoliyat yuritadi.

Mamadali Topivoldiyev urushda bir qancha harbiy yutuqlarga erishgan, jumladan, 19 ta eshelonni, guruhi bilan 14 ta eshelonni, shaxsan o'zi esa 5 ta eshelon (shundan 4 tasini Prigan qishlog'i hududida) portlatib yuborgan, qo'l jangida 76 nafar nemis askarini yo'q qilgan, bir nafar nemis generalini asirga olgan. Topivoldiyevning asosiy quroli pulemyot bo'lgan, qayd varaqasida 150 dan ortiq nemis askarlari, ofitserlarni qirib tashlagani, 180 nafarini asir olgani, 20 dan ortiq avtomashinani yo'q qilgani keltirib o'tilgan. Topivoldiyevning qo'lga olinishi uchun Adolf Gitler tomonidan nemis askarlariga 50 ming (ayrim manbalarda 25 ming) reyxxmarka pul mukofoti va'da qilingan [4].

Mamadali Topivoldiyev birinchi marotaba "Chekist" partizanlik brigadasida bo'lganida, undan kimligini so'rashganda Topivoldiyev "O'zbek" deya javob bergan,

ammo partizanlar uning talaffuziga tushunmasdan “Kazbek” deb chaqirisha boshlaydilar. Tutingan onasi Anna Vasilyevna Topivoldiyevning ismini aytishga qiynalgani uchun uni “Tolik”, “Tolya” deb atay boshlaydi. Harbiy jangovar operatsiyadan keyin Mamadali Topiboldiyev xanjari bilan devor va daraxtlarga “Kazbek” ismi o‘yib tushirgan, shu orqali dushmani qo‘rquvga solib turgan. Topiboldiyevni beloruslar, safdoshlari va nemislar “Osiyo arsloni” (yoki “Osiyo yo‘lbarsi”), “Kazbek”, “Tolya Kazbek”, “Tolik Kazbek”, “Chekist”, “Kazbek Botir” deb atashgan.

Mamadali Topivoldiyevning urushdan keyingi faoliyatiga to‘xtaladigan bo‘lsak, u 1945-yil 8-mayda harbiy xizmatdan ozod etiladi. Bir muncha muddat Minsk shahrida yashab, Belorussiya SSR Qishloq xo‘jaligi xalq komissarligida haydovchi bo‘lib ishlaydi, so‘ngra o‘z qishlog‘iga qaytib ketadi. 1947-yil 16-fevralda O‘zbekiston SSR Oliy Soveti 1-chaqiriq deputati etib saylanadi. 1946-yil Voroshilov nomidagi kolxoz raisi, 1952 – 1953-yillarda tuman iste‘molchilar uyushmasi bo‘limi rahbari, 1953-yillari Rishton GES rahbari, 1953 – 1954-yillari O‘zbekiston SSR Oziq-ovqat sanoati vazirligiga qarashli Qo‘qondagi “Uzprodtrans” avtobazasi direktori, 1954 – 1969-yillari “Kommunizm” kolxozi raisi bo‘lib ishlagan. Aynan kolxoz raisi bo‘lgan davrda Amirobod cho‘li o‘zlashtirilib, 500 gektar yangi yerlar paydo bo‘ladi. Topiboldiyev tashabbusi bilan Toshkentda Zohidon qishlog‘i bosh rejasi ishlab chiqiladi. Rejaga asosan qishloqda paxsali uylar o‘rniga zamonaviy ko‘rinishdagi yangi uylar qurilib, qishloq gazlashtiriladi, asta-sekinlik bilan qishloq shahar shaklidagi aholi punktiga aylanadi. Kolxozda zamonaviy tibbiyot markazi binosi qurilib, foydalanishga topshiriladi. Topiboldiyevning tashabbusi va kolxoz mablag‘lari hisobidan qishloqdagi 3-maktabning yangi binosi ham qurib bitkaziladi. 1964-yil 25-avgustda maktabning ochilish marosimiga Sovet Ittifoqi Qahramoni, fazogir Yuriy Gagarin tashrif buyurgan. Topivoldiyevning amalga oshirgan ishlari tufayli o‘sha paytda Zohidon qishlog‘ida 20 nafar shifokor, 80 nafar o‘qituvchi, 150 nafar muhandis-texnik, agronom, zootexniklar mehnat faoliyati olib bora boshlashdi.

Urushdan keyin bir necha marta Belorussiyaga borib keladi. U yerda tutingan onasi Anna Rilkovaga urushda buzib tashlangan uyi o‘rniga yangisini qurib beradi. Shuningdek, urushda birga xizmat qilgan safdoshlari Nikolay Apanasenko va Ivan Kurushevga ham o‘z qishlog‘idan ish topib bergan [4].

Mamadali Topivoldiyev urushda bo‘lgan paytida razvedkachi Lidiya Kornelova bilan oila qurgan. Ammo Lidiya o‘zi berilgan harbiy vazifani bajarish chog‘ida nemislarga asir tushib qoladi, asirlikdan qochgan Lidiya boshqa otryadga qo‘shiladi va shu otryad yordamida Petropavl (Qozog‘iston) shahriga keladi, bu yerda Topiboldiyevning Valentina ismli qizi tug‘iladi. 1946-yilda Mamadali Topiboldiyev Rishton tumani, Uyrat qishlog‘idan bo‘lgan Donoxon Usmonxo‘jayevaga uylanadi. Ularning 8 nafar farzandlari Muborakxon (1946 – 2010), Ahmadali (1949 – 2009), Homidjon (1956 – 2009), Mavludaxon (1959), Hasanboy (1962), Matlubaxon (1962),

Farhodjon (1963), Qahramon (1965) Topiboldiyevlar bo'lgan. Mamadali Topivoldiyev otasining sharafiga o'g'illaridan biriga uning ismini qo'ygan.

Mamadali Topivoldiyev 1969-yil 6-may kuni o'z ishxonasida noma'lum shaxslar tomonidan pichoqlanishi (qizi Mavludaxonning so'zlariga ko'ra, Rahim ismli telbasifat kishi pichoqlagan) tufayli fojiali halok bo'lgan. Zohidon qishlog'idagi qabristonga partizan safdoshlari Nikolay Apanasenko (1918 – 1959) va Ivan Kurushev (1916 – 1960) yoniga dafn etilgan.

Mamadali Topivoldiyev xotirasiga bag'ishlab, bir qator ishlar amalga oshirilgan. Jumladan, Zohidon qishlog'ida va Krugloye shahridagi qahramonlar alleyasida granitdan qahramonning byusti o'rnatilgan, Farg'ona viloyatidagi Rishton, Hamza (hozirgi Tinchlik), Farg'ona shaharlari ko'chalariga, Minsk shahridagi markaziy ko'chalardan biriga, Mogilyov viloyati, Krugloye shahridagi ko'chaga, Rishton tumanidagi 27-umumiy o'rta ta'lim maktabiga, tumandagi mahallalardan biriga nomi berilgan, Pandigon qishlog'ida uy-muzeyi tashkil qilingan. Vitebsk viloyati, Tolochinsk tumaning tarixiy o'lkashunoslik muzeyi hamda shu tumanning Voronsevichi qishlog'idagi o'rta maktab muzeyida Topivoldiyev haqidagi materiallar ko'rgazmasi mavjud. Kruglyansk tumanida eng yaxshi xirmonchi va kombaynchilar uchun "Mamadali Topivoldiyev" nomidagi mukofot ta'sis etildi. Pisarevo qishlog'i esa "Topivoldiyevka" deb qayta nomlandi. Ammo boshqa manbalarga ko'ra, qishloq nomini o'zgartirish taklifi berilgan, lekin qishloq nomi tarixiyliги yo'qolishi tufayli bu taklifdan voz kechilgan. 2020-yil Toshkent shahrida ochilgan G'alaba bog'idagi "Mangu jasorat" majmuasida Mamadali Topiboldiyevning haykali ham joy olgan. 2022-yil 8-may kuni Zohidon qishlog'ida Mamadali Topivoldiyev memorial muzeyi ochilgan. 2023-yil 4-may kuni O'zbekistondagi Shanxay Hamkorlik Tashkilotining Xalq diplomatiyasi Rishton tumani hokimligi bilan birgalikda Mamadali Topivoldiyev xotirasiga bag'ishlab "Xotira – abadiy, qadr – muqaddas" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazdi.

Mamadali Topivoldiyev SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1944-yil 15-avgustdagi farmoni bilan "Fashist bosqinchilariga qarshi kurashish mobaynida qo'mondonlikning jangovor topshiriqlarini namunali bajarganligi hamda ko'rsatgan jasorati va qahramonligi uchun" "Sovet Ittifoqi Qahramoni" unvoni bilan [5], "Lenin ordeni" (1944-yil 15-avgust), "O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan paxtakor" faxriy unvoni (1964-yil 13-noyabr), "Jangovar xizmatlari uchun" ordeni (1942-yil 13-noyabr), 1-darajali "Ulug' Vatan urushi partizaniga" medali (1944-yil 29-iyun), "Qizil Yulduz ordeni" (1944-yil 15-avgust), "Jasurligi uchun" medali, "Qizil Bayroq" ordeni (1957-yil 11-yanvar), "Hurmat Belgisi" ordeni (1966-yil 30-aprel), "1941 – 1945-yillardagi "Ulug' Vatan urushida Germaniya ustidan qozonilgan g'alaba uchun" medali, "1941 – 1945-yillardagi Ulug' Vatan urushida qozonilgan g'alabaning yigirma yilligi" medali, "SSSR Qurolli Kuchlarining 50 yilligi" medali bilan mukofotlangan.

1973-yilda “O‘zbekfil’m” buyurtmasi asosida rejissyor Ravil Botirov tomonidan “Незабытая песня” nomli badiiy-harbiy film suratga olingan. Fil’m Mamadali Topivoldiyev hayoti haqida bo‘lib, film bosh qahramoni Sattor (Kazbek) rolini O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, mashhur aktyor Rustam Sa’dullayev o‘ynagan. O‘zbekistonda ushbu fil’m “Kazbek” nomi ostida namoyish etilgan. 2003-yilda rejissyor Muqim Yo‘ldoshevning tashabbusi va shaxsiy mablag‘i hisobidan “Ikki xalq farzandi” (“Сын двух народов”) nomli hujjatli fil’m olingan. 2019-yili Belorussiya va O‘zbekistonda Tengiz Dumbadzening “Ular Belorussiyani ozod qilgandilar” (“Они освобождали Беларусь”) hujjatli filmi namoyish etiladi. 2021-yilda rejissyor Ali Hamroyev rahbarligi ostida yosh kinoijodkor Alizoda Mehrubon tomonidan “Unutilmas qahramonlar” hujjatli fil’m turkumiga kiruvchi “Partizan Mamadali Topivoldiyev” nomli hujjatli filmi suratga olindi. 2021-yil mart oyida “Ipak yo‘li durdonasi” nomi ostida bo‘lib o‘tgan 13-Toshkent xalqaro kinofestivalining yakunida “Belarusfil’m” va O‘zbekiston Kinematografiya agentligi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risidagi memorandum hamda qo‘shma loyiha, ya’ni “Kazbek” nomli to‘liq metrajli fil’mni suratga olish haqida kelishuv imzolandi. Fil’mning postanovka rejissyori etib Muhammad Ali Iskandarov belgilandi. Dastlab loyihaviy nomi “Kazbek” bo‘lgan fil’m “Osiyo arsloni” nomi ostida 2022-yildan Farg‘onada Topivoldiyevning yoshlik davri suratga olingan. Yoz oylarida esa Topivoldiyev urushdagi harakatlari Belorussiyada suratga olindi. Bosh rolni taniqli aktyor Ulug‘bek Qodirov ijro etgan. Mamadali Topiboldiyev hayotiga bag‘ishlab, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi, yozuvchi Hamid Burhon “Ko‘prik” nomli hujjatli roman (“Donishmand ziyosi” nashriyoti, Toshkent, 2020-yil), yozuvchi Baxtiyor Abdug‘ofurning “Kazbek” (Osiyo arsloni) nomli roman (“Kitobdornashr” nashriyoti, Toshkent, 2023-yil) yozgan [4].

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Mamadali Topivoldiyev Ulug‘ Vatan urushi davrida g‘alabaga munosib hissa qo‘shgan haqiqiy o‘zbek o‘g‘loni edi. Uning bu jasorati ham O‘zbek xalqi, ham Belorus xalqlari shonli tarixida o‘chmas iz bo‘lib tarix zarvaraqclariga muhrlandi. O‘z jonini Vatan istiqboli uchun ayamay bir necha bor dushman changalidan omon qolgan bu qahramonimiz hattoki fashist yo‘lboshchilari hamda Adolf Gitlerni ham yuragiga larza sola olgan edi. Mamadali Topivoldiyev urushning ne-ne mashaqqatlarini ko‘rmagin, urush tugaganidan keyin ham o‘z yurtida xalqiga munosib xizmat qila oldi. Xalqi uchun sidqidildan Vatan koriga yaray oldi. Mamadali Topivoldiyev va boshqa jasur hamyurtlarimizning urushda ko‘rsatgan jasorat va qahramonlik namunalari biz yoshlar uchun haqiqiy ibrat maktabidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shamsuddinov R., Karimov Sh. Vatan tarixi. III kitob. – T.: Sharq, 2010.
2. Murtazayeva R., Yunusova X., Eshov B. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. II-kitob. – T.: VNESHINVESTPROM, 2019.

3. Каримов И. Ватан саждагоҳ каби мукаддасдур. Т. 3. – Т.: Ўзбекистон, 1996.
4. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Mamadali_Topivoldiyev
5. <https://war-heroes.uz/bizning-qahramonlarimiz-2/sovet-ittifoqi-qahramonlari/topivoldiyev-mamadali>